

MILLATNI KIM QUTQARADI YOXUD “SHO‘RODAN QOLGAN ODAMLAR” ASARI MISOLIDA QIYOSIY TAHLILLAR

Jumayeva Gulruxsor

Buxoro davlat pedagogika instituti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zo‘rlab singdirilgan yot g‘oyalar ta‘sirida millatdoshlarimizni manqurtga aylantirgan sho‘rolar davri voqealari haqida so‘z boradi va uch navnihol yigitchani turmadan xalos qilish uchun jon -jahdi bilan kurashgan qishloq faollarining chorasiz xatti-harakatlari ishonarli dalillar yordamida atroflicha talqin qilinadi. O‘zi ishlayotgan turmada mahbuslik azobiga dosh berolmay nola chekayotgan o‘g‘lining holidan xabar olish o‘rniga o‘zicha V.I.Lenin so‘zini qayta-qayta takrorlab, gerdayib yurgan nazoratchi va bitta tirraki buzoqni deb jon-u jigarini qamatib yuborgan amakining fojiasi kishini chuqur o‘yga toldiradi. Bir so‘z bilan aytganda, bu qissa zukko kitobxonlar ommasini jonday aziz mustaqilligimizni ko‘z qorachig‘idek asrashga o‘rgatadi.

Kalit so‘zlar: mafkura, istibdod, mustabid, zo‘ravonlik, tuzum, qissa, ibrat

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассказывается о событиях эпохи Шуры, превративших наших соотечественников в отморозков под влиянием насильственно насаждаемых иноземных идей, и об отчаянных действиях сельских активистов, которые боролись за свою жизнь, чтобы с помощью убедительных доказательств интерпретируется вольно. Вместо того, чтобы услышать о состоянии своего сына, не вынесшего боли заключения в тюрьме, где он работает, он снова и снова повторял слова В. И. Ленина, и ходившего рядом надзирателя, и дядю, убившего жизнь и печень из-за одного столбового теленка. трагедия наполняет человека глубокими мыслями. Одним словом, эта история учит интеллигентных читателей беречь нашу дорогую независимость как зеницу ока.

Ключевые слова: идеология, тирания, диктатор, насилие, система, рассказ, урок.

ABSTRACT

This article talks about the events of the Shura era, which turned our compatriots into scumbags under the influence of forcibly instilled foreign ideas, and the desperate actions of rural activists who fought with their lives to free three young men from prison with the help of convincing evidence. is loosely interpreted. Instead of hearing about the condition of his son, who could not bear the pain of imprisonment in the prison where he works, he repeated the words of V. I. Lenin over

and over again, and the warder who walked around and his uncle, who killed his life and liver because of a single pillar calf. tragedy fills a person with deep thoughts. In a word, this story teaches intelligent readers to protect our dear independence like the apple of their eye.

Key words: ideology, tyranny, dictator, violence, system, story, lesson

*Necha bo'lib yo'qlikka mahkum,
Tildan, dindan bo'lmagan mahrum,
Sinib, singib ketmagan mardum-
O'zbek bo'lish oson emasdir...*

E.Vohidov

KIRISH

Sh. Bo'tayevning "Sho'rodan qolgan odamlar" qissasini o'qiganda insonda inson qadri maslasi yaqqol aks etadi. Asar millatimizning Sovet hukumati davridagi moddiy va ma'naviy ahvoli, insonning qadr-qimmati, o'z kasbiy burchini oilasidan ustun qo'ygan otaning xatosi oqibati o'laroq uch o'smir boshiga tushgan ayanchli voqealar haqida hikoya qiladi.

Yetmish yillik istibdod tuzum haqida juda ko'p kitoblar o'qiganman, ammo bu qissa nihoyatda sodda, xalqona ohangda yozilganki, o'qib mazza qilasiz. Sahifalarni varaqlar ekansiz, kinoyali tasvirlardan goho zavqlanib kulib yuborasiz, goho esa faqirona hayot kechirayotgan bo'lsa-da, borini oshirib, yo'g'ini yashirib kelayotgan, qorni ovqatga, usti kiyimga yolchimasa-da, boshini tik tutib o'zbekona g'urur bilan yashayotgan bu beg'ubor insonlar qalbining tub-tubiga yashiringan adoqsiz dard-alamlarni his etib beixtiyor ko'zlaringiz yoshlanadi. Xullas, aytarli quvonch nimaligini bilmay yashayotgan farishtasifat bu mehnatkash insonlarning gap-u so'zlari, chorasizlikdan azob chekkan pokiza qalblaridagi oh-u zorlari alamli bir kuy misoli yuragingizning eng nozik torlarini chertib o'tadi.

Real voqelik ishtirokchilari bo'lgan Toshmurod, nazoratchi, amaki, oqsoqol-ko'ksoqollar, o'g'rilikka sherik bo'lgan o'spirin yigitchalarning onalari, xullas bu timsollarning bari-bari yurakka yaqin, samimiy odamlar. Qissadagi kuyunchak oqsoqollar uch begunohning qamoqqa tushmasligi uchun jonlarini fido qilsalar, o'qituvchi esa boshini kundaga qoyib yoshlarning barcha ko'rguliklariga jamiyat aybdorligini sudda baralla aytadi. Nihoyatda faqirona hayot kechirayotgan, hayot tarzlari, kiyim-kechaklari bir ahvolda bo'lgan bu jonkuyarlar mahallalari sha'ni va obrosi uchun hech nimadan qaytmasliklari kitibxonni hayratga soladi. Balki dunyoning qaysidir bir mamlakatida bashang kiyingan badavlat kimsalar o'lim bilan

olishayotgan yoxud yordamga muhtoj bir odamga beparvo qarab o'tib ketar yoki zarracha mehr, yordam ko'rsatmas, biroq yuzlari quyoshda qorayib ketgan, qadoq qo'lli bu mehnatkashlarning qalblari hamisha mehr-u murravatga limmo-lim. Yo'qsa "yog' yeganda yot, qon ichganda qarindosh yaxshi" deya amakini arizasini qaytarib olishga da'vat etmagan, gaplariga quloq solmagach esa yetti yoshdan yetmish yoshgacha to'planib uni toshbo'ron qilishgacha bormagan bo'lardilar. Bu voqealar yuragimni larzaga solar ekan "Mening vatanim dunyodagi eng buyuk vatan. Asrlararo davom etgan qullik azoblariki xalqimizni o'zligidan, e'tiqodidan ajratolmagan ekan, vaqti kelib bu millat eng yetuk, eng boy mamlakat barpo eta oladi" – deb hayqirgim keldi.

Endi asarning asosiy qahramoni Toshmurod va u bilan birga jinoyatga qo'l urgan ikki tengdoshi haqida gapirishning fursati keldi, menimcha.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Xalqimizda "Aqli yo'qning dini yo'q" degan ajoyib naql bor. Menimcha, o'zini hukumatga, kasbiga sodiq deb gerdayib yurgan otaning loqaydligi shuncha ko'rguliklarga olib keldi. Afsuski, shu kecha-kunduzda ham juda ko'p ota-onalar xuddi shu masalada xato qiladilar, ya'ni bolalariga sirdosh bo'lib ularni mustaqil hayotga tayyorlash kerak bo'lgan nozik damlarda do'q-po'pisa, achchiqlanish bilan ulardan uzoqlasib qoladilar. Oqibatda ham o'zlari azob chekadilar, ham farzandlari turli yo'llarga kirib ketadi. Axir Qur'oni Karimning "Qasos" surasi, oltmishinchi oyatida ilojisiz vaziyatda qolgan barcha bandalarga qarata: "Sizlarga berilgan narsalar faqat dunyoning mato va ziynatlaridir. Alloh huzuridagi (ajr-u mukofot) esa yaxshiroq va boqiydir. Axir, aql yurgizmaysizlarmi?!"-deyilganku. Afsuski, bemehr nazoratchi ota va oqibatsiz amaki na aqlarini ishlatadilar, na hamqishloqlarining yalinib yolvorishlariga quloq tutadilar. Aksincha, ikkalasi ham o'z so'zida qat'iy turib olishadi. Zero Qur'onning "An'om" (116 oyat), Yunus (36-oyat), "Yusuf" (106-oyat), "Nahl" (83-oyat), "Maryam" (73-oyat), "Yosin" (62-oyat) suralarida ko'pchilikka ergashish lozimligi, jamiyatdan ajralish, olomonning parchasi bo'lish zalolatga yetaklashi eslatib o'tilgan.

MUHOKAMA

Asar mohiyatini ochishda quyida keltiriladigan mana bu parcha ham yaqindan yordam beradi: "Muallimlar ham non yemas-da, deb o'yladi o'g'lining ortidan kelayotgan semiz ayol. Birov gapini bir tiynga olmasa, qishloqda brigadchalik, hisobchichalik obro'si bo'lmasa – sudda nima karomat ko'rsatardi. Cho'ntagida uch-to'rt tanga bo'lganda ham baharnav edi. Xotini Ahmad devonaning uyiga yog' so'rab chiqibdi. -O'l qo'y-da bu kuningdan ." Bu ayolning oqsoqollar suhbatiga aralashganda aytgan mana bu gaplari ham Sovet davrida o'qituvchining obro'si

nihoyatda pastligidan dalolat beradi. “Malim ham kuchukday gap-da! Erta-yu kech vov-vov etadi-yu, oldiga tashlangani bitta quruq suyak. Shu ish uchun katta shaharlarga borib o‘qib kelishadi haytovur.” Xuddi su o‘rinda kitobxonning qalbi junbushga keladi. Nahotki, Navoiyga harf tanitgan, Bobur-u Temuriylarni o‘qitgan buyuk kasb egalari haqida shunday bema’ni so‘zlarni aytish mumkin bo‘lsa?!

Sudda so‘z olgan muallimning quyidagi fikrlari yuqorida bu kasb egalarini yerga urib aytilgan nohaq gaplarga zarba bo‘ladi go‘yo: “Bolalarimiz maktabni bitirib qayoqqa borishni bilmay qolyaptilar. Ikki-uch yil avval maktabni tugatganlar ham behuda ko‘cha changitib, aroq ichib yurishibdi. O‘zlari bilmagan holda turli-tuman jinoyatlarga qo‘l urishyapti. Jamiyat bunga yo‘l qo‘yib bermoqda. Katta bir qishloqda birorta ishlab chiqarish korxonasi, madaniy maskan yo‘q, biroq aroq, sigareta sotadigan do‘konchalar son-sanoqsiz.”

Sinf rahbarining mana bu oxirgi iltimosi zalda otirganlar qalbini yoritib yuboradi: “Bu bolalarning gunohidan kechishlaringizni so‘rayman. Ularning o‘zlariyam bu qilg‘ilikni qaytib qilmaymiz deb o‘ylab o‘tirishibdi. Shundaymi bolalar?”

O‘g‘li hajrida adoyi tamom bo‘lgan, ammo eriga botinib biror so‘z aytolmagan mushtipar onaning ahvoli qissada juda ta’sirchan ifodalangan “Umr bo‘yi poliz qo‘riqchisiga o‘xshab bitta tayoq ushlab o‘tasizmi, ota?” degan o‘ylamay aytgan gapi nafaqat Toshmurodning, balki begunoh onasining ham boshiga balolar yog‘diradi. Ota-bola o‘rtasiga tushgan sovuqchilik tufayli bechora ayol yonib-yonib axiyri kulga aylanadi, ya’ni hayotdan erta ko‘z yumadi. Shunday bo‘lsa-da, bolasining ko‘rguliklarida bu ayolning ham aybi otasinikidan kam emas deb o‘ylayman. Balki o‘qimishli, o‘z qadrini biladigan, zukko ayol bo‘lganida oila bunchalik botqoqqa botmagan bo‘larmidi.

Bir esga A.Qodiriyning “Mehrobdan chayon” asarida Solih Maxdum ukalari bilan loy o‘yiniga mashg‘ulot bo‘lgan qiziga shunday tanbeh beradi: “Ishing bo‘lmasa kitob o‘qi, husnixat ol, sen kulolning qizi emassan-ku”.

Oilaning ana shunday talablariga rioya qilib ulg‘aygan Ra’no o‘n to‘rt-o‘n yetti yoshida Qur’on va “Haftiyak”ni tushurgan, Navoiy-u Bedillarni yod olgan fozila qizga aylanadi. Qissa qahramonining onasi ham ilmi va oqila ayol bo‘lganida va bolasini ham shu yo‘lga boshlaganda dilbandi onasining hayotini jannatga aylantiradigan, uddaburon yigit bo‘lishi mumkin edi.

Asarda Sunnat o‘g‘ri tomonidan bot-bot tilga olingan marhum qamoqxona direktori obraziga nazoratchi obrazi parallel qo‘yilgan. O‘zlarini ustoz shogird deb bilgan bu kimsalar hukumat chizib bergan chiziqdan bir qadam ham nariga o‘tmaganlar.

Oilani asrash, muhtojlarga yordam qo‘lini cho‘zish, qishloqdoshlarga hamiyat ko‘rsatish fazilatlarini ularga mutlaqo begona edi. Ustozi madrasani buzdirib g‘ishtlaridan imorat qurdirishni hukumatga yoqishning eng yaxshi yo‘li deb bilgan bo‘lsa, shogirdi “aytilgan yo‘ldan” bir qadam chiqish mumkin emas deb “yolg‘iz o‘g‘liga zarracha rahm-shavqat ko‘rsatishga” yaramaganligi o‘quvchini hayajonga soladi. Hamqishloqlar biror-bir odamga yordam qo‘lini cho‘zmagan, hatto xotini o‘lganda chopon kiyish u yoqda tursin, zarur udumlarni bajarayotgan kayvonini “kerakli joyda javob berasiz” – deb qo‘rqitgan “nachaynik”ni qancha yomon ko‘rsalar, shu qishloqlik Maxsumning otasini turmada qiynab o‘ldirgan ustozidan undan-da ko‘p nafratlanaganlar. Bu odamning madrasani buzdirib, uning g‘ishtlaridan turma binosini qurdirishi esa o‘zini ham, oilasini ham xarob qilgan, qarigan chog‘ida farzandlari tomonidan ko‘chaga haydalib, axiyr-oqibat o‘zini osib o‘ldirishga majbur bo‘lgan.

Shundayku-ya, lekin Cho‘yanboy Qulmonov va shogirdi fojiasida ham asosiy maqsadi yurtdoshlarimizni manqurtga aylantirish bo‘lgan Sovet tuzumi mutlaq aybdordir. O‘sha kezlarda namoz o‘qish u yoqda tursin, kelin-kuyovlarga nikoh, o‘liklarga janoza o‘qitish ta‘qiqlanganligi ayni haqiqatdir. Nafaqat ta‘qiqlangan, otasi yoki onasi o‘lganda janoza o‘qitgan amaldorlar lavozimidan ozod ham qilingan. Kim bilsin, Qulmonov bilan nazoratchi qullik emas, mustaqillik davrida yashaganlarida, beg‘ubor bolalik yillarida rus tarixi va adabiyotini emas, sahifalarida buyuk ajdodlarimiz siymosi jilolanib turgan o‘z tariximiz va adabiyotimizni o‘qib o‘rganlarida bu qadar manqurtga aylanmagan bo‘larmidilar?!

Bular mening kitobxon sifatidagi taassurotlarim. Taassurotlar o‘z yo‘liga, ammo mutolaa jarayonida yuragimning tub-tubida quyidagi og‘riqli savollar ham paydo bo‘ldi. Shunchalik shafqatsizmidi yetmish yillik mustabid tuzum?! Agar shunday bo‘lsa, nega hali-hanuzgacha o‘sha davrni qo‘msab, maqtab yashaydiganlarni har qadamda uchratish mumkin? Qullikni la‘natlash, mustaqillikni anglash uchun ayrim yurtdoshlarimizga yana necha yil kerak bo‘ladi ?

Bu savollarga javob izlar ekanman, ko‘z o‘ngimda mintaqamiz xalqlari, shu jumladan ona xalqimizning XIX asrning ikkinchi yarmidan to mustaqillikka qadar 150 yil qaramlik asoratiga mahkum bo‘lib kechirgan hayoti gavdalandi. Bu asoratdan xalos bo‘lish uchun esa o‘ttiz yil muhlat kamlik qiladi.

XULOSA

Shunday ekan, “Sho‘rodan qolgan odamlar” singari mustamlaka davri manfurliklarini har tomonlama yoritib beruvchi ijod namunalari, o‘z navbatida bu kabi asarlarni mutolaa qiluvchilar qancha ko‘p bo‘lsa shuncha yaxshi. Zero,

chinakam ibrat maktabi, mehr-parvarish manbayi bo‘lgan badiiy asarlar hamisha xalqimiz xizmatiga tayyor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Boboyev T. “Adabiyotshunoslik asoslari “ O‘zbekiston nashriyoti-2001
2. Vohidov E. “Tabassum” Toshkent -2017
3. Imomnazarov I. “Milliy ma’naviyatimiz nazariyasiga chizgilar”Toshkent -1998